

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOTIROV ILHOM SAYDULLAYEVICH

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI VA LITSEY O‘QUVCHILARINI
HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI**
(“Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” asosida)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

CHIRCHIQ – 2023

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavleniye avtoreferata dissertatsii
doktora filosofi(PhD) po pedagogicheskim naukam**

**Contents of dissertation abstract of doktor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Botirov Ilhom Saydullayevich

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasi ("Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi" asosida) 3

Ботиров Илхам Сайдуллаевич

Технология военно-патриотического воспитания учащихся общеобразовательных школ и лицеев (на основе "Концепции военно-патриотического воспитания молодежи")..... 25

Botirov Ilham Saydullaevich

Technology of education of students of general secondary schools and lyceums in the spirit of military-patriotism (on the basis of the "Concept of educating young people in the spirit of military-patriotism")..... 49

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 55

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

BOTIROV ILHOM SAYDULLAYEVICH

**UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI VA LITSEY O‘QUVCHILARINI
HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH TEXNOLOGIYASI**
(“Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi” asosida)

13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta‘limotlar tarixi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

CHIRCHIQ – 2023

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Ped4687 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Chirchiq davlat pedagogika universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Botirova Shaxlo Isamiddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xurvalieva Tarmiza Latipovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Quronov Muhammadjon
pedagogika fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.04.2021.Ped.82.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2023 yil “___” _____ kuni soat ___ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy.) Tel.: (+998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41; e-mail: cspi_kengash@umail.uz).

Dissertasiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil:111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil “___” _____ kuni tarqatildi.

(2023 yil “___” _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

U. N. Xodjamqulov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash raisi, p.f.d (DSc), dosent

F.T. Rajabov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash kotibi, geografiya fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dosent

V.B. Fayziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, b.f.d. (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda jamiyat taraqqiyoti uchun xizmat qilishga tayyor kadrlarni yetishtirish, o'z mamlakati va boshqa xalqlarga hurmat bilan yondoshish ustuvor vazifa sifatida belgilangan bo'lib, oliy ta'lim muassasalari, jamoat va siyosiy tashkilotlarda o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularda fuqarolik pozitsiyasini himoya qilish uchun konstitusiyaviy burchlarini bajarish alohida e'tiborga molik vazifadir. Ana shu nuqtai nazardan jahon tashkilotlarining tarbiya, fan, madaniyat, tinchliksevarlik sohasidagi hamkorlik g'oyalari aks etgan strategik hujjatlarda ham yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish ustuvorlik kasb etadi.

Dunyoda kechayotgan globallashuv sharoitida keyingi o'n yillik ichida dunyo bo'yicha yoshlarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun muhim say-harakatlar amalga oshirilmoqda, ta'lim, fan, madaniyat va axborot-kommunikatsiya sohasidagi o'zaro hamkorlikni kuchaytirish, jamoat va siyosiy tashkilotlarda yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash masalalarining yuzaga kelishi tufayli jamiyatning barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy-tadqiqotlar olib borilmoqda. Buning natijasida ilg'or xorijiy tajribalarga tayanib fan va texnologiya yutuqlari bilan hamohang tarzda ilmiy tahlil qilish, yoshlarlarda ma'naviy-axloqiy g'oyalarini rivojlantirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Mamlakatimizning Yangi O'zbekistonda sog'lom dunyoqarashga ega bo'lgan yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, ularga fikrlash va halol mehnat qilish muhim ekanligini uqtirish lozim. Ayniqsa, mutafakkirlarimizning ilmiy meroslari, yosh avlodni har tomonlama sog'lom va barkamol qilib tarbiyalash borasidagi fikr va g'oyalardan foydalanish, ular tomonidan ilgari surilgan shaxsiy va kasbiy fazilatlarning o'quvchi-yoshlar ongiga singib, ularning ma'naviy-axloqiy, vatanparvar, intellektual salohiyatli, zukko va barkamol bo'lib shakllanishidagi xizmati beqiyosligiga shubha yuq. So'nggi yillarda harbiy ilm-fanni rivojlantirish, uni zamonaviy talablar va jahon standartlariga moslashtirish, o'quvchi yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirish, keltirish vazifasiga, chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayonlarini takomillashtirish hamda harbiy mahoratini oshirishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Harbiy ilmni rivojlantirish borasida harbiy mojarolar va zamonaviy jang amaliyotlarini hamda milliy harbiy san'at tarixini chuqur o'rganish va uni amaliyotda takomillashtirish"¹ muhim ustuvor vazifalar etib belgilandi. Bu esa, Qurolli Kuchlar akademiyasi, harbiy ta'lim fakultetlari, "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari, umumiy o'rta ta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablarda harbiy-vatanparvarlik yo'nalishiga ixtisoslashtirilgan sinflarga yuqori professional salohiyatga ega harbiy pedagoglarni tayyorlash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Buning uchun, yoshlarilarimiz qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, ularning ongli yashashga, fikriga ega bo'lishga turli

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-fevraldagi "Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 140-son Qarori FF Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.05.2021 y., 09F21F320F0482-son.

mafkuraviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan, irodali, fidoiy va ma'naviy-axloqiy tarbiyalangan insonlar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan faoliyatni tashkil etish zarur. Zero, Yangi O'zbekistonda o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yangicha olib borilayotgan islohotlar va ta'lim-tarbiyaning bosh maqsadi etib belgilangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "... yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"¹, demak, yoshlarning tarbiyasi, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalari, avvalambor, shu jamiyatni qurishga faol ishtirok etadigan, umuminsoniy qadriyatlarni mukammal egallagan va unga sodiq, iymon-e'tiqodli, teran aql egasi, pok axloqli, o'z haq-huquqlari, burch va mas'uliyatini chuqur anglaydigan yoshlarni tarbiyalash barobarida amalga oshirilad. Umumta'lim maktablari va litseylar muhim ijtimoiy institut bo'lib hisoblanadi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2017-yil 5-iyuldagi «Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi PF-5106-son, 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son qarorlari va hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash yo'lida ijobiy ishlar ko'plab amalga oshirilgan bo'lsada biroq, bu borada hal etilishi zarur bo'lgan masalalar ham mavjud, chunonchi, yoshlarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga oid tajribalarining yetarlicha o'rganilmaganligi; shuningdek, o'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda milliy merosimiz va ulug' mutafakkir olimlarimiz asarlaridan yoshlarni ma'naviy ahloqiy tarbiyalashda yetarlicha foydalanish masalasining mustaqil tadqiqot sifatida tadqiq etilmaganligi tadqiqot muammosining dolzarbligini asoslaydi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Keyingi yillarda, yoshlarning ma'naviyatini shakllantirishga oid bir qancha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, M.Kuronov, J.Yuldoshev, O.Musurmonova, M.Inamova, U.Maxkamov, S.Nishonova, A.K.Minavvarov, N.Almetov, D.Ruziyeva, N.Egamberdiyeva, Sh.Xalilova, Sh.Shodmonova kabilarning qator ishlarida yoshlarni

¹ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. –T.; "O'zbekiston", 2021.-457 b.

ma'naviy-axloqiy, estetik, jismoniy jihatdan rivojlantirish, ularni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida vatanparvar, mas'uliyatli, insonparvar qilib tarbiyalash, komil insonni o'stirish, milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik jihatlari hamda ijtimoiy sohani yanada takomillashtirish borasida muayyan tadqiqot ishlarini amalga oshirdilar. Shuningdek, texnologik yondashuv asosida ta'lim samaradorligini oshirish va o'quvchilarni ma'naviyatini shakllantirishda G'.Yo'ldoshev, N.Azizxodjayeva, M.Pardayev, N.Saidahmedov, L.Golish, R.Ishmuhamedov, A.Arziqulov, M.Ochilov, O'.Tolipov va boshqalarning ilg'or qarashlaridan keng foydalanildi.

O'quvchi-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirishning pedagogik-psixologik shart-sharoitlari, shaxsning ruhiy jarayonlari va uning rivojlanishi kabi masalalar qator psixolog olimlar Z.Abidova, Sh.Barotov, V.Karimova, D.Sobirova, M.Saipova, E.Goziyev va boshqa olimlar tomonidan tadqiq qilingan.

Xorijiy va Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) mamlakatlari olimlaridan S.Heller, N.Bereznitskaya, E.Betti, E.Bikkerman, N.Pivovarova, E.Rierdon Betti, T.Adorno, M.Xorkeymer, J.Ellport, S.Mendus kabi olimlar o'quvchi-yoshlarni ma'naviy-axloqiy qilib tarbiyalashning ilmiy-nazariy asoslari, uning ijtimoiy va ma'naviy yo'nalishlari, zamonaviy tendensiyalari kabi masalalarini o'rganganlar.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, bugungi kunda o'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirishning mazmunini yoritib berish, o'quvchi-yoshlarning yangicha dunyoqarashga ega bo'lishlari va mustaqil fikrlay olishlari, muammoli vaziyatlarni hal qilib bilishlari, har qanday vaziyatlarda mustaqil qarorlar qabul qila olishlari kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish zaruriyati har qachongidan ham ko'proq sezilmoqda.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Chirchiq davlat pedagogika universitetining "Pedagogik ta'lim innovasion klasterining ilmiy-nazariy asoslari va amaliy mexanizmlari" mavzusidagi strategik ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan (2018-2022).

Tadqiqotning maqsadi umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmining nazariy-pedagogik asoslarini yangicha talqin qilish hamda pedagogik shart-sharoitlarini aniqlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash modelini ishlab chiqish va uning komponentlarini takomillashtirish;

yoshlarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish hamda amaliyotga joriy etish;

umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasini zamonaviy o'quv-uslubiy ta'minotini takomillashtirish orqali metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni.

Tadqiqotning predmeti umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakli, metodi, vosita va texnologiyalari.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda adekvat holatda o'rganishni ta'minlashga qaratilgan metodlar majmui qo'llanildi: nazariy (tahliliy-sintetik, qiyosiy-taqqoslash, analogiya), diagnostik (so'rovlar, test o'tkazish, kuzatish, loyihalashtirilgan metodikalar), prognostik (ekspert baholash, mustaqil baholarni umumlashtirish), pedagogik eksperiment va matematik metodlar (ma'lumotlarni statistik qayta ishlash, natijalarni grafik tasvirlash va boshq.).

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining pedagogik modeli ma'naviy tafakkurning motivatsion, kognitiv va faoliyat komponentlarini o'quv faoliyat turlari psixologik, funksional, amaliyga moslashtirish asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda "harbiy-vatanparvarlik" tushunchasi mohiyati, harbiy-vatanparvarlikni anglashning asosiy jihatlari, negizlari tarixiylik, mantiqiylik, kuzatish, qadriyatlar asosida yo'naltirilganligi antityud, munosabatlar, ichki hamda tashqi dinamik an'analar, fikrlash steriotiplari bir-biridan bosqichma-bosqich o'tish ketma-ketligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan;

o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'quvchilarning shaxsiy sifatleri bilan yosh va fiziologik xususiyatlarini inobatga olgan holda milliy g'oyani singdirishga qaratilgan ta'lim mazmuni mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish orqali ularning intellektual rivojlanganlik darajalari yuqori, o'rta va past)ni baholash mezonlari o'z-o'zini boshqarish, kognitiv va kreativ jihatdan takomillashtirilgan;

o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmining zamonaviy ta'lim texnologiyalari, uning eksperimental darajasi, baholash mezonlari va axborot-metodik ta'minotini vitagen ta'lim integratsiyasini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlariga moslashtirish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda oila, mahalla va ta'lim muassasalarining o'zaro hamkorligining pedagogik imkoniyatlari, uslubiy tamoyillari, mezonlari aniqlangan va asoslab berilgan hamda ta'lim-tarbiya tizimining modeli ishlab chiqilgan;

dissertatsiya tadqiqoti natijasida o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini takomillashtirishning shakl va metodlari ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, davra suhbatlari, ko'rik-tanlovlar, ijodiy kechalar kabi funksiyalarini kiritish asosida yoritib berilgan;

tadqiqotga oid nazariy yondashuv, g'oyalar, tavsiyalar bilan boyitilgan, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni yangi qarashlar bilan takomillashtirilgan darsdan tashqari mashg'ulotlar uchun ish rejasi tuzilmasi ishlab chiqilgan;

Tadqiqot natijalarining ishonchligi o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini takomillashtirishga doir ilmiy-nazariy yondashuvlar, g‘oyalar o‘rganilganligi, tadqiqot usullari, uslubiy ta‘minot amaliyotga joriy etilganligi, tajriba-sinov ishlari reprezentativligi, matematik-statistik tahlil tadqiqot samaradorligini tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. O‘quvchi-yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyalariga doir ta‘lim mazmuni takomillashtirilganligi, zamonaviy ta‘lim texnologiyalari va faol metod, shakl, vositalar ishlab chiqilganligi, ularning tajriba-sinovdan o‘tkazilganligi, taklif etilgan pedagogik tizimning samaradorligi aniqlanganligi, zamonaviy ta‘limiy yondashuvlar, pedagogik andoza, qarash va g‘oyalar joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan xulosalar, taklif va tavsiyalar ta‘lim jarayoni mazmunini takomillashtirish, o‘quv va ma‘naviy-ma‘rifiy faoliyatni yangicha yondashuvlar asosida tashkil etilganligi, soha mutaxassislari, xususan professor-o‘qituvchilar, yosh tadqiqotchilar, jamoat tashkilotlari mutasaddilari o‘z amaliy faoliyatlarida foydalanishlari mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va lisey o‘quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasini takomillashtirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar quyidagi shakllarda joriy qilindi:

harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning ijtimoiy rivojlanishini ilmiy asoslash, o‘quvchilarni tarbiyalash mazmuniga harbiy-vatanparvarlik g‘oyasini singdirish bo‘yicha ma‘lumotlar bilan takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik sharoitlarini ishlab chiqish, unda Vatan taraqqiyotini himoya qilish bo‘yicha burch tuyg‘usini shakllantirish, har bir o‘quvchi-yoshda o‘tmish ajdodlari oldidagi mas‘uliyat, burchni anglash, millat manfaati bilan yashash, Vatan taraqqiyoti, xalqning ravnaqi, millat obro‘sigacha hissa qo‘shish, el-yurt taraqqiyoti uchun kurashish his-tuyg‘ularini yuksaltirish, milliy qadriyatlarining ijtimoiy, ma‘naviy, madaniy va siyosiy hayotda tutgan o‘rnini o‘quvchilarga anglatishga doir elektron ta‘lim resursi yaratish bo‘yicha tavsiyalardan Evropa Ittifoqining ERASMUS+ dasturi doirasida 2021-2022 yillar davomida amalga oshirilgan 574099-EPP-1-2016-1-IT-EPPKA2-CBHE-SP raqamli “Oliy ta‘lim sohasida potensialni rivojlantirish yo‘nalishidagi PAWER- hududlararo mobillikni yo‘lga qo‘yish va bu borada dolzarblik, sifat hamda tenglikni ta‘minlash” mavzusidagi ilmiy-amaliy loyiha doirasida amaliyotda foydalanilgan (Termiz davlat universitetining 2023-yil 19-iyuldagi 06/12-3043-son ma‘lumotnomasi). Natijada o‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda jamoat tashkilotlari faoliyatini muvofiqlashtirish samaradorligini oshirishga xizmat qilgan;

mashg‘ulotlar jarayonida o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning didaktik imkoniyatlarini chaqiriqqa qadar boshlang‘ich tayyorgarlik mazmunini umumta‘lim fanlari bilan gorizontal va vertikal yo‘nalishlarda boyitib borishga yo‘naltirilgan konsentrlangan ta‘lim imkoniyatlarining produktivlik darajasini kengaytirish orqali aniqlashtirish, o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning pedagogik modelining amaliy komponentini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalardan A1-XT-0-92997 raqamli “Yoshlarni umuminsoniy, milliy va tarixiy qadriyatlar uyg‘unligi asosida ma‘naviy – axloqiy tarbiyalashning muammolari” mavzusidagi amaliy loyihada doirasida belgilangan

vazifalarni bajarishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi O‘zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti Qoraqalpog‘iston filialining 2023 yil 20 iyuldagi 417/1-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning didaktik ta’minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

o‘quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy, umumbashariy qadriyatlar, ma’naviy merosimizning ulkan an’analari va shakllanib kelayotgan yangicha tarbiya qudratli omilga aylanayotganligi, o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini rivojlantirish, ularda o‘z Vatanini sevishga, uni ardoqlashga doir ilmiy-nazariy ma’lumotlar bilan qurollantirish jarayonida, ularning ma’naviy-axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar va xulosalardan Sirdaryo viloyati teleradiokanali davlat muassasasi faoliyatida foydalanilgan (Sirdaryo viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2023-yil 1-maydagi 01-05-268-son ma’lumotnomasi). Natijada, o‘z Vataniga bo‘lgan hurmatni oshirishga, Vatanni sevishga, ta’lim-tarbiyaga doir ma’lumotlarni kengaytirishga, ma’naviy-axloqiy fazilatlarini oshirishga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Dissertatsiya ishi natijalari 5 ta ilmiy-amaliy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Tadqiqot ishining muhim natijalari yuzasidan 11 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, ulardan 4 tasi respublika jurnallarida, 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Tadqiqotning tuzilishi va hajmi. dissertatsiya ishi kirish, 3 bob, xulosa, taklif va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat bo‘lib, ishning hajmi 135 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi bayon etilgan, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti va tadqiqot usullari aniqlangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalarining ishonchliligi, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy etilishi, e’lon qilinganligi, ishning tuzilishi borasidagi ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Umumiy o‘rta ta’lim maktablari va litsey o‘quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning nazariy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida umumiy o‘rta ta’lim maktablari va litsey o‘quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni, tarbiyaviy ishlarni shakllantirish va rivojlantirishda mahalliy, horijiy olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari, ma’naviy-axloqiy, tarbiyaviy ishlarning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari tahlil qilingan. Yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib

chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish mazmunini oshirish, o'quvchi-yoshlarga milliy g'oyaga, yuksak ma'naviyat va insoniylikning milliy an'analariga sodiqlik ruhini chuqur singdirish ishlarni tashkil etishning samarali shakli va uning ilmiy-nazariy asoslarini yaratish dolzarb pedagogik muammo ekanligi, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmini yaratish yoritib berilgan.

Ta'lim tizimi uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash faqat ta'lim mazmunining uzviyligi va uzluksizligiga emas, balki mahalla, oila, oliy ta'lim jarayoni uzviyligi va uzluksizligiga, ya'ni uni amalga oshiruvchi subyekt hamda uning oxirgi natijasiga, tafakkur taraqqiyotiga ham bog'liqligi namoyon bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning uzviyligini ta'minlash, tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish, tarbiyaning hayotiy ahamiyatini oshirish va ijtimoiy sotsial aloqadorlik integratsiyani ta'minlashga qaratilgan. Bu kabi yirik ta'rbiyaviy loyihalarda o'quvchilarning ishtirok etib ijobiy natijaga erishish, avvalo, ularning o'zlashtirgan kompetensiyalarini qay darajada amaliyotga tatbiq eta olishiga bog'liq. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litseylarda o'tiladigan mashg'ulotlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tashkil etishda ta'lim jarayonini loyihalashning o'zni beqiyos. Loyihalash ta'lim jarayonini tashkil etish va uning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlovchi muhim shartlardan biri bo'lib, ta'lim jarayonini loyihalashda:

pedagogik faoliyat mazmunini tahlil qilish;

natijalarni oldindan ko'ra bilish;

rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirish loyihalashni ishlab chiqish kabi vazifalarni bajarish maqsad qilib olinadi.

O'qituvchi tomonidan o'quv jarayonining mazmuni, vositalarini belgilash asosida dars mashg'ulotlarini loyihalashtirish ta'lim jarayonida asosiy o'rinni egalladi.

Dissertatsiyada harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mazmuni o'quvchilarni tarbiyaviy shart-sharoitlarini yaratish, ma'naviy axloqiy rivojlantirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, kasb-hunarga o'rganishga jalb etish ishlari samaradorligini ta'minlashning ta'sirchan vositalari va usullarini tatbiq etish, o'quvchining o'zini-o'zi anglashi va rivojlantirishi, turli tadbirlarda tajriba orttirish masalalarining ahamiyati ochib berilgan. O'quvchilarning jamiyat hayotida munosib o'rin topishi, iste'dod va qobiliyatini rivojlantirishi, qiziqishlari asosida biror harbiylik kasb sirlarini egallashida hamkorlik ishlarining imkoniyatlari katta ekanligi asoslab berildi.

Harbiy vatanparvarlik tarbiyasining asosiy vazifasi o'quvchi yoshlarni milliy vatanparvarlik ruxida o'z vatanni himoyasi yo'lida aql zakovati va harbiy maxorati bilan xizmat qilishga, uni himoya qilishga tayyor turadigan yoshlar qilib tarbiyalash, o'quvchilarda pedagogik xislatlarni rivojlantirish, yangi jamiyatning ongli quruvchilari, milliy g'oyalariga sadoqat, mexnatkash, jasoratli hamda Vatan uchun o'z hayotini baxshida etadigan insonlarni tarbiyalashdan iborat.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi - vatanparvarlik tarbiyasining ajralmas qismi bo'lib o'quvchilarning, o'z xalqining jangovar an'analarini bilishga asoslangan

shaxsiy rivojlanishining maqsadli boshqariladigan jarayoni hamda vatan himoyasiga tayyorgarligi.

Vatanni himoya qilish va buning uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish o'quv, ilmiy va tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirishga qaratilgan jarayon hisoblanadi. Ta'limning yangi paradigmasi hususiyatlari ta'lim-tarbiyaning barcha bosqichlarida amalga oshiriladigan shakl va metodlar majmuidir.

Innovatsion jarayonlarga oid ilmiy-pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatdiki, real o'zgarishlar sharoitida oddiy o'zgarishlar oson bo'lmasligi, ta'lim sohasida innovatsiyalarni tadbqiq etish bir necha yo'nalishlarda amalga oshirish ya'ni:

ta'lim maqsadlarini qayta ko'rib chiqish, shaxsni rivojlantirishga, uning ijtimoiy buyurtma asosida ta'limiy-tarbiyaviy yo'naltirilgan ta'lim olish;

ta'lim jarayoni tarbiyaga hissa qo'shadigan tizim sifatida loyihalash, shaxsni o'zini-o'zi rivojlantirishga;

o'quv fanlarni o'rganish jarayonida olingan bilimlarni umumlashtirish va bir qator fanlarni muammoli-modulli o'rganish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;

innovatsion va eksperimental ishlarni faol amalga oshirish;

asosiy e'tiborni o'qitish jarayonidan o'quvchilarni o'zini-o'zi rivojlantirishiga qaratish, darsdan tashqari mustaqil ishlarni ko'paytirish asosida o'qituvchi rahbarligida harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tajribasini o'zlashtirish;

jamiyatning zamonaviy ijtimoiy-madaniy taraqqiyoti darajasida ta'lim jarayonini moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlash.

Shaxsni shakllantirish g'oyasi, ayniqsa, yangi jamiyat pedagogi shaxsining shakllanishi, "Kadrlar tayyorlash milliy dastur"ining barcha qoidalarida eng asosiy masala deb qaraladi. Unda shaxsning ongli ravishda ijtimoiy-siyosiy hayotda ishtirok eta oladigan, ijtimoiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsata oladigan, mamlakat, oila ravnaqiga hissa qo'sha oladigan bo'lib shakllanishi ta'kidlanadi. Huquqiy-demokratik jamiyatda har bir insonning ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topib olishi, shaxsning boy ichki dunyosining shakllanishi uchun kerakli imkoniyatlar keltiriladi."...shaxsning ijodiy, ijtimoiy faol ma'naviy boy bo'lib shakllanishi uchun zarur sharoitlar yaratib beriladi".


Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Oliy majlis senatorlariga murojaatnomasida quyidagi fikrlarni bildirdi:

"Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi". Umumiy o'rta va professional ta'lim tizimini bugungi kun talablari asosida tashkil etish, farzandlarimiz har tomonlama kamol topishi uchun, barcha sharoitlarni yaratish lozim.

Dissertatsiyada davlat ta'lim standartlari talablariga javob bera oladigan hamda bilishga intiluvchan, qiziquvchan, mantiqiy va kreativ fikrlaydigan, shaxsiy faoliyatini tashkil eta oladigan, suhbatdoshini diqqat bilan tinglaydigan hamda nostandart vaziyatlarda mustaqil ravishda harakat qiladigan, o'zining xatti-harakatlari uchun javob beradigan o'quvchilarni tarbiyalash o'qituvchilarning zamonaviy pedagogik faoliyatiga bog'liq ekanligi o'quvchilarning ijtimoiy, ma'naviy axloqiy kompetensiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish orqali asoslab berildi.

Ta'lim tizimining tarkibiy qismlaridagi sifat o'zgarishlari tufayli mazmunli faoliyat, amalga oshirilgan umumiy va maxsus boshqaruv funksiyalari, dasturlar, texnologiya va usullar orqali tarbiyaviy muhitini yaratish mumkin. Davlat va jamiyatimiz diqqat markazida o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi va ularning jismoniy tayyorgarligi borasida tarbiyaviy pedagogik jarayonni o'z ichiga olgan aniq maqsad va vazifalar mavjud bo'lib natijada o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning mavjud tizimini takomillashtirishga xizmat qiladigan modelni ishlab chiqish imkoniyati yaratilgan: Shu bilan birga, harbiy vatanparvarlik yo'nalishning hozirgi vaqtda hal qilinayotgan muammolari va kuchli tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Ijtimoiy-siyosiy komponent bo'lajak chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'qituvchisida milliy istiqlol mafkurasini shakllantirish, harbiy vatanparvarlikni va Vatan himoyachisiga hamisha shaylikni tarbiyalash, zamonaviy armiyani shakllantrish haqidagi to'g'ri tasavvurni hosil qilish, shuningdek hukumatimiz siyosatini chuqur anglash, davlatimiz manfaatlari, urushlarning qirg'in keltirishi, Vatanni himoya qilishning mohiyatini, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish muhim vazifalardan sanaladi. O'quvchilarni harbiy vatanparvar qilib tarbiyalash tizimi jarayonlarini tashkil etishda nazariy va amaliy mashg'ulotlar, ekskursiya, davra suhbatlari, mustaqil ta'lim, o'zini-o'zi tarbiyalash va fan olimpiadalariga qatnashish, ustoz-shogird an'analari, fan to'garaklari ishlarini tayyorlash jarayonlarini murakkab tizim sifatida ko'rib chiqish va ularning aloqadorlik hamda izchillik tamoyillari asosida o'zaro integratsiyalashuvini ta'minlash zarur hisoblanadi (1-rasm).



1-rasm. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarni takomillashtiruvchi pedagogik jarayon

Bizningcha, u quyidagi jihatlari bilan amaldagi pedagogik jarayonni takomillashtiradi, ya'ni bular:


1. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning maqsadi va vazifalarining aniq qo'yilganligi bilan. Shu kunga qadar ta'lim- tarbiya jarayonida qaysidir ma'noda vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari amalga oshirib kelinmoqda, biroq aniq bir maqsad asosida emas, balki maqsadni samarali bajarish uchun vazifalar belgilanmagan. Taklif etilayotgan modelda esa barcha tadbir va bajariladigan ishlar modelning maqsadi doirasida amalga oshiriladi.

2. Jarayonni amalga oshirish tizimlari o'rtasidagi integratsiyani kuchaytirish muammosining qo'yilganligi bilan. Shu kunga qadar bu muammo doirasidagi ishlar umumta'lim muassasalari zimmasiga yuklatilgan. Biroq bu jarayonda oila va mahalla, jamoat tashkilotlari, mudofa ishlari bo'yicha harbiy kamissarat kabilarning ishtiroki sezilmaydi

3. Mazkur muammo yechimi doirasida bajariladigan ishlarning aniq mexanizmlari, manba va vositalari ishlab chiqilganligi bilan.

4. O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasining takomillashtirilganligi bilan.

5. Pedagogik jarayon samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tamoyillarining ishlab chiqilganligi bilan. (2-rasm)



2-rasm. O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlari loyihasi

Tarbiyaviy ishlar tizimida ishtirok etuvchi barcha subyektlari zarur ko'nikma va malakaga ega bo'lgan o'quvchilarni tayyorlashning ko'p bosqichli tizimini tartibga soladi.

Ush bu tizim birinchidan, tizimga integratsiyalashgan holda yangi sinergik sifatni olish imkonini beruvchi, ikkinchidan, tizimning raqobatbardoshligini amalga oshirish imkonini beruvchi, uchinchidan, ijtimoiy siyosiy ahamiyatga ega.

Biz tizimli yondashuvini joriy etishni ko'rib chiqayotganimiz sababli yaxlit jarayon sifatida umrbod ta'lim konsepsiyasi bilan birga shaxs ijodiy salohiyatining izchil rivojlanishini, uning ma'naviy dunyosining har tomonlama boyib borishini ta'minlash kerak. Tarbiya-bu shaxsning ijtimoiy mavqeida qulay o'zgarishlarni, uning ijtimoiy, shaxsiy va ma'naviy rivojlanishini ta'minlaydigan maxsus tashkil etilgan ta'limning ketma-ket bosqichlaridan iborat.

Dissertatsiyaning “Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mexanizmlari va texnologiyalari” deb nomlangan ikkinchi bobida o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda mexanizmlari va pedagogik shart sharoitlari, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning modeli ishlab chiqildi. Unda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosiy komponentlari keltirildi, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirish texnologiyalari hamda o'quv-metodik ta'minoti izohlandi.

O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik tarbiyasi jarayonining ishlab chiqilgan modeli zarurat va yetarlilik xususiyatlariga ega bo'lgan pedagogik sharoitlar to'plamini yaratish orqali muvaffaqiyatli amalga oshirilishi yo'llaridan biri dars va darsdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda ma'naviy sog'lom muhitni yaratishdan iborat.

Zero, insoniyat jamiyatda moddiy va ma'naviy ne'matlar ishlab chiqarish, tabiat va uning oliy mavjudoti bo'lmish inson tafakkurida amal qiladigan qonuniyatlarni bilish, olam haqidagi bilimlarni yosh avlodga o'rgatish hamda takomillashtirish bilan rivojlanib boradi. Demak, o'qituvchi insoniyat jamiyati tomonidan tarixiy taraqqiyot davomida to'plagan ijtimoiy tajribasini yosh avlod tomonidan o'zlashtirib, uni yanada takomillashishida bevosita vorislikni ta'min etadi.

Insoniyat jamiyatini tinch, farovon yashashi uchun fan-texnika yutuqlari, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalaridan omilkorlik bilan foydalanish lozimligini hayotning o'zi taqozo etadi. Bu o'z navbatida har bir obyekt (buyum, predmet, hodisa, jarayon, tirik mavjudot)ni har tomonlama chuqur va puxta o'rganishni talab etadi.

Nazariy o'rganish, o'quvchilar faoliyatini kuzatish, ta'lim mazmuni bilan tanishish orqali o'quvchilar quyidagi sifatlarni samarali o'zlashtirishi zarurligi aniqlandi: ma'naviy-axloqiy sifatlarni-harbiy vatanparvarlik, baynalminallik, mehnatsevarlik, fidokorlik, e'tiqodlilik, adolatparvarlik, vijdonlilik, davlat siyosatining to'g'riligi va o'z kuchiga bo'lgan ishonchga egalik, do'stlik tuyg'usiga egalik, tinchlik va adolat uchun kurashuvchanlik, bag'rikenglik, mas'uliyatlilik,

insoniylik, insonparvarlik, milliy tarixga hurmat ko'rsatish, ijobiy milliy xususiyatlar (mehmondo'stlik, jamoaviylik, saxiylik, olijanoblik va boshqalar)ga sodiqlik, jamoa ishlarida faol qatnashish, ijtimoiy topshiriqlarni bajarish, liderlik, o'z oilasi, ta'lim muassasasi hamda o'zi mansub bo'lgan akademik guruh sha'nini himoya qilish, jamoa obro'si uchun kurashish, intizomlilik; jismoniy sifatlari- jismonan sog'lomlik, jismonan yetuklik, harakatchanlik, jismoniy madaniyat va sog'lom turmush tarziga ega bo'lish;

Tadqiqot jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilariga harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimining asosini tashkil etuvchi omillar va unga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat ekanligi aniqlandi. (3-rasm)



3-rasm. Harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayoni andozasi

omillar: a) o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ijtimoiy ehtiyoj ekanligi va jamiyat taraqqiyoti shuni taqozo etishi; b) harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda o'quvchilar bilim, ko'nikma, malaka va yanahda kompetensiyalarga ega bo'lish; d) o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash asoslari sifatida odob, axloq, xulq, madaniyat, ma'naviyat kabi prinsiplarga asoslanishning afzalligi; ye) o'quvchilarni harbiy vatanparvar qilib tarbiyalashga o'rgatish ko'nikmalarini dars jarayoni, qo'shimcha mashg'ulotlar va to'garaklar vositasida shakllantirilishi hamda faol ijtimoiy munosabatlarga yo'nalganligi; j) o'quvchilarga harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonini monitoring qilib borish, yangiliklar bilan boyitish hamda takomillashtirish.(3-rasm)

talablar: a) o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ijtimoiy munosabatlarni tashkil etishda faol ishtirok etish;

b) bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarga ega bo'lish ijtimoiy vaziyatlarini baholay olish; d) o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonlariga ijobiy ta'sir o'tkazish va ijodiy yo'naltira olish; ye) tarbiyaviy jarayonlarda ijtimoiy intellekt dinamikasi; j) o'quvchilar harbiy vatanparvarlik tarbiyasi ko'nikmalari mohiyatini tez anglashi va mexanizmga tizimli yondashuv.

Nazariy tahlillar shuni ko'rsatadiki ta'lim jarayonida zamonaviy boshqaruv dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari vositasida o'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatga alohida e'tibor o'quvchilarni jismoniy chiniqqanligi, ijodkorlikka, yetakchilikka va vatanparvarlikka tayyorlashga qaratildi.

O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tuzilmasi va komponentlariga asoslanish tadqiqot doirasida mazkur jarayonni amalga oshirish samaradorligini ta'minlashga xizmat qiluvchi pedagogik modelni ishlab chiqish imkonini berdi. (4-rasm)

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash maqsadida loyihalashtirilgan model ochiq tavsifga ega bo'lib, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik faoliyatga tayyorlash bilan bevosita bog'liqlikda ishlab chiqilgan.

O'quvchilarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirishga yo'naltirilgan faoliyatning samarasi eng avvalo, uning maqsadini to'g'ri belgilab olinishi bilan bog'liq. Tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan model o'z oldiga aniq maqsadni belgilab olgan: Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari va litsey o'quvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash modeliga qo'yilgan maqsadga erishishni ta'minlaydigan uchta blokni o'z ichiga qamrab olgan (2-rasmga qarang).

Ta'lim maqsadi: tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, faollik, mustaqillikni rivojlantirish, harbiy vatanparvarlikni shakllantirish hamda takomillashtirish. DTS talablariga javob beradigan tarbiyaviy bilim, ko'nikma va malakalarga ega shaxsni shakllantirish.


Ta'lim mazmuni: DTS, o'quv rejalar va dasturlar, elektron darsliklar, o'quv qo'llanma, meyoriy hujjatlar va boshqalar.

Ta'lim berish shakllari: yakka tartibda, guruhli tarkibda va jamoaviy.

Ta'lim berish metodlari: tushuntirish, namuna ko'rsatish, odatlantirish, rag'batlantirish, koyish, tergash, interaktiv, innovatsion metodlar va boshqalar.

Ta'lim berish vositalari: ko'rgazmali vositalar, texnik vositalar, didaktik vositalar, aniq va real vositalar va boshqalar.

Harbiy vatanparvarlikni takomillashtirish texnologiyalari: zamonaviy o'qitish Trip to the Future (Kelajakka sayohat), Lateral fikrlash, "FIRST" texnologiyalari va metodlari. Ta'lim berish tamoyillari: muvofiqlik, yaxlitlik, darajalash, moslashuvchanlik va dinamizm, ochiqlik.



4-rasm. Umumiy oʻrta taʼlim maktablari va litsey oʻquvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash pedagogik modeli

Modelni loyihalashtirishda umumiy oʻrta taʼlim maktablari va litsey oʻquvchilarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni takomillashtirish jarayonini baholash mezonlari: kognitiv, motivatsion, faoliyatga oid ilmiylik, uzluksizlik, fasilitatsiya, refleksivlik tamoyillari va tadqiq qilinayotgan jarayonni modellashtirish yoʻnalishini, tayanchini aniqlaydigan nazariyaning asosiy qoidasi sifatida kompetentli, tizimli, faoliyatli va aksiologik yondashuvlar, sinergetik jarayonning elementlari sifatida belgilandi.

